

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
UMUMIY JARROXLIK VA TRANSPLANTOLOGIYA KAFEDRASI**

“TASDIQLAYMAN”
ADTI rektori **A. A. Nazimov**
“ 2025 yil

**“TIBBIYOT KASBIGA KIRISH”
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 900000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot

Ta’lim sohasi: 910000 -Sog‘liqni saqlash

Ta’lim yo‘nalishlari: 60910200 - Davolash ishi

Andijon - 2025 yil

Fan/modul kodi TKK 1104	O'quvyili 2025-2026	Semestr 1	Kreditlar 2	
Fan/modul turi: Majburiy	Ta'lim tili: O'zbek/Rus/Ingliz		Xaftadagi dars soatlari 2	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tibbiyot kasbiga kirish	30	30	60
2	<p>I. Fanning mazmuni.</p> <p>Fanning o`qitishdan maqsad - talabalarga turli yoshdagi bemorlarni parvarish qilishni, kasb etikasi va deontologik tamoyillarni, bemor xamda kasalxona xodimlarining shaxsiy gigiena qoidalari haqida bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> – deontologiya va etika tamoyillarini talabalar ongiga singdirish; – klinikaning qabul bo'limi, bemorlar davolanadigan bo'limi, reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limlari tuzilmalari, ularning ishini tashkil qilish asoslari bilan tanishtirish; – bemorlarni qabul qilish qoidalarini o'rgatish; – kattalar, bolalar va o'smirlarni statsionar davolash tizimida parvarish qilishni o'rgatish; – davolash muassasalaridagi tizimni o'rgatish; – kasalxona bo'limlariga yotadigan va yotgan bemorlarga sanitar ishlov berish qoidalarini o'rgatish; – bog'lov xonasi va muolajalar xonasida ishlash qoidalari bilan tanishtirish; – kasalxona ichi infeksiyasi to'g'risida tushuncha berish va uni oldini olish qoidalari bilan tanishtirish; – kasallik turi va og'irlik darajasi, bemorning yoshiga qarab ovqatlantirishni o'rgatish; – dori vositalarini qabul qilish usullari va kiritish yo'llarini o'rgatish; – bemorlarni tezkor va rejali operatsiyalarga tayyorlashni o'rgatish; – jonlantirish bo'limida davolanayotgan va jonlantirish bo'limidan chiqqan bemorlarni parvarish qilishni o'rgatish; – hayot uchun havfli xolatlarda (yurakning to'xtashi, nafas olishning buzilishi, qon ketishi, zaxarlanish, kuyish, sovuq qotish, aspiratsiya) bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni o'rgatish; – laborator tekshiruv uchun biologik materiallarni to'plashni o'rgatish; – bemorlarni parvarish qilishning zamonaviy usullari to'g'risidagi ilmiy 			

adabiyotlardan foydalanishni o'rgatish.

II. Asosiy nazariy qism

II.I Amaliy mashg'ulot bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi

1 - semestr

1. Tibbiy etika va deontologiya asoslari
2. "SHifokor siri"
3. Innovatsion tibbiyotda diagnostika usullari va ularning ahamiyati
- 4. Kam invaziv jarrohlik tamoyillari. Xirurgiyada kichik invaziv aralashuvlar. Endovideojarrohlik operatsiyalari: NOTES, SILS (Davlat nomi: Moskva, RF; ta'lim muassasi nomi: M.V.Lomonosov nomli MDU; reytingdagi o'rni: 87)**
5. Xirurgiya qabul bulimi tuzilmasi, vazifalari va uni ishini tashkil qilish
6. Aseptika asoslari. Boglov va operatsiya xonalarini tuzulishi
7. Antiseptika turlari.
8. Xirurgik bemorlarni tekshirish . Operatsiyadan oldingi davr.
- 9. Jarrohlik operatsiyalari haqida tushuncha, turlari. Kam invaziv kardioxirurgiya (Davlat nomi: Moskva, RF; ta'lim muassasi nomi: M.V.Lomonosov nomli MDU; reytingdagi o'rni: 87)**
10. Bemorni xirurgik operatsiyaga tayyorlash. Operatsiyaga kursatma va qarshi kursatmalar haqida tushuncha va turlari
11. Ogriqlantirish asoslari . Bemorning operatsiyaga ruxiy tayyorlash. Krizis bulgan xolda maslaxat berish
12. Operatsiyadan keyingi davr, asoratlarni oldini olish
- 13. Desmurgiya . Boglam turlar. Zamonaviy jaroxat qoplamalari (Davlat nomi: Moskva, RF; ta'lim muassasi nomi: M.V.Lomonosov nomli MDU; reytingdagi o'rni: 87)**
14. SHikastlangan bemorlarni parvarish qilish asoslari
15. Onkologik bemorlarni parvarish qilish. Xirurgik bemorlarni ovqatlantirish

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar 50% nazariy va 50% klinik o'quv amaliyotidan iborat.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
 - O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imqoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
 - Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imqoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

Klinik o'quv amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Talabalarning o'quv klinik amaliyoti kafedraning klinik bazalari bo'limlarda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Kirish qismi – mashg'ulotning maqsadi va vazifalari aniqlanadi, o'rganilayotgan ko'nikmadan foydalanishning motivatsion asosi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Agar texnik vositalarni qo'llash talab etilsa (pikfloumetr, spiroanalizator, tonometr, otoskop, oftalmoskop va sh.o'), unda ularning ta'sir mexanizmi, qo'llash texnikasi tanishtiriladi.

2. Ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish – bunda ko'nikmani bosqichlarga to'g'ri taqsimlashga alohida e'tibor qaratiladi. Teskari aloqani olgunga qadar, ya'ni o'rganayotgan shaxs mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida bajara olganda, ko'nikmani bajarishning barcha bosqichlarini umumlashtirish, o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilish va faqat ko'nikmaga ega bo'lgandan so'ng bemorda qo'llaguncha, har bir bosqichni taxlili namoyish qilinadi.

3. Xulosa – o'rganayotgan shaxs bilan ushbu ko'nikmaning ahamiyatini muhokama qilish va uni turli vaziyatlarda qo'llash. So'rov asosida birlamchi bo'g'inning o'maqsadi va vazifalariga erishilganligiga ishonch hosil qilish. O'qitish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va hal qilish.

Talabalarga bajarilayotgan amallar algoritmi mavjud bo'lishi lozim (kafedraning uslubiy qo'llanmasida kasbiy yo'riqnomalar batafsil yoritilgan, o'quv xonasi devoriga sxema ko'rinishida osib qo'yilgan bo'lishi lozim). O'qituvchi nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'rilaydi. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishga va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashga tayyor bo'lishlari lozim. Mashg'ulot so'nggida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganlik darajasini baholaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

1. Qo'llarni oqar suv ostida yuvishtexnikasi
2. Steril xalatni kiyish bosqichlari
3. Steril qo'lqoplarni kiyish bosqichlari
4. Rumolli bog'lamlar qo'yish texnikasi bosqichlari
5. "Chepes" bog'lami: ko'rsatmalar va qo'yish ketma ketligi.
6. Gippokrat qalpoqchasini qo'yish texnikasi
7. Yugansimon bog'larni qo'yish texnikasi
8. Barmoq bilan qon tomirlarni bosib qon to'xtatish sohalari
9. Esmarx jgutini qo'yish texnikasi
10. Yumshoq to'qimalar yopiq shikastlanganda birinchi yordam bosqichlari
11. Amaliyotdan oldingi davrda bemorni amaliyotga tayyorlash texnikasi.
12. Tozalovchi klizma texnikasi.

Ushbu amaliy ko'nikmalarni bajarishda va o'zlashtirishda Germaniyaning "Lecturio GmbH" meditsina saytidan foydalanish tavsiya etiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilayotgan mavzular:

1. Organizmni chiniqtirish usullari
2. Akseleratsiya
3. Zararli odatlar
4. Avitaminov va gipovitaminozlar
5. Huqna turlari
6. Xozirgi zamon tibbiyotida yatrogeniya muammolari
7. Evtanaziya muammolari
8. Patsient bilan verbal va noverbal muloqot ko'nikmalari
9. Bemorlarning ruhiy holati «Depressiya, shok, qo'rquv, cho'chish, ipoxondriya, o'zini aybdor xis qilish», suyitsidal fikrlash va x.k.
10. Krizis xolatda bo'lgan bemorga maslahat berish. Yo'qotish, bemor xolatini o'ziga xosligi
11. **Xirurgiyada kichik invaziv aralashuvlar (Davlat nomi: Seoul, South Korea; ta'lim muassasi nomi: Yonsei University; reytingdagi o'rni:56)**
12. Xirurgiya va reanimatsiya bulimlari asosiy jixoz va anjomlari
13. Xirurgiyada gospital infeksiyani profilaktikasi
14. **Plastik, estetik va rekonstruktiv xirurgiya asoslari (Davlat nomi: Seoul, South Korea; ta'lim muassasi nomi: Yonsei University; reytingdagi o'rni:56)**
15. **Xirurgiyada to'qimalarni regeneratsiya qilish texnologiyalari (Davlat nomi: Seoul, South Korea; ta'lim muassasi nomi: Yonsei University;**

reytingdagi o'rnini:56)

Tibbiyot kasbiga kirish fani bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil keys, vaziyatli masala va krossvordlar shaklida amalga oshiriladi.

Tibbiyot kasbiga kirish fani bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyasion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;
- ADTI klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;
- bemorlarni parvarish qilishda davolovchi yoki navbatchi xamshira bilan ishtirok etish;
- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarini suxbat va ma'ruzalarni o'tkazish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayarlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;
- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) echish.
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

3 V.Ta'lim natijalari/kasbiy kompetensiyalari.

UK 1 1 . Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya

	<p>usullarini qo'llashga tayyorgalik.</p> <p>UKK 1 2 . Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;</p> <p>UK 1 . Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;</p> <p>UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;</p> <p>UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;</p> <p>UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;</p> <p>UKK 1 2 . Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;</p> <p>UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;</p> <p>UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;</p> <p>UKK 4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;</p> <p>UKK 5. Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.</p> <p>Izox:</p> <p>1 UK- umumiy kompetensiya</p> <p>2 UKK – umumiy kasbiy kompetensiya.</p>
4	<p style="text-align: center;">VI.Ta`lim texnologiyalari va metodlari.</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma`ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tezkor savol-javoblar; • guruxlarda ishlash; • jamoa bo`lib ishlash; • taqdimotlar tayyorlash
5	<p style="text-align: center;">VII.Kreditlarni olish uchun talablar.</p> <p>Tibbiyot kasbiga kirish fani bo'yicha baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.</p> <p>Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga</p>

muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

joriy nazorat (JN);

yakuniy nazorat (YAN).

Fan bo'yicha talabaning semestr (o'quv yili) davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi.

No	Baxolash turi	Maksimal ball	Kredit soni
1.	Auditoriyadagi o'quv mashg'ulotlarni baxolash (JN)	100	2
2	Yakuniy nazorat (YAN)	100	0
	JAMI	100	2.0

Fanga ajratilgan 2 kreditni talaba JN davomida yig'adi.

JORIY NAZORAT (JN) JNda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Tibbiyot kasbiga kirish moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi. Talabalar fan bo'yicha 100 ballik tizimda baxolanadi. Joriy nazorat quyidagi usullar bilan o'tkaziladi:

- **Og'zaki so'rov** (kafedra yoki simulyasion o'quv markazida) - 80 %
- **Test usulida** (platformada kunlik mavzu bo'yicha test topshirish)- 20%

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart va o'qituvchi tomonidan talabaning JN og'zaki so'rov shaklidan olgan bali shu kuni o'zida platformaga qo'yiladi.

Talaba xar bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plaganidan keyingina yakuniy nazoratga kiritiladi.

Fan bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS Baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi,	5	a'lo

		hatoliklar bilan	<p>zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy vamustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>			
81-85	B	"juda	modul dasturining barcha	4	yaxshi	

			<p>yaxshi" - o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan</p>	<p>bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; standard vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi; amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi; modul dasturida tavsiya qilinganasosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli</p>		
--	--	--	---	--	--	--

			<p>muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
71-80	C	<p>"yaxshi" - o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan</p>	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi; modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay</p>		

			<p>olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhlimuhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p>		
60-70	D	"qoni-qarli" - sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>	3	Qoni qarli
55-59	E	"o'rta" -	davlat ta'lim standartlari		

		minimal natijaga teng	<p>(talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi; terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi; javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlardapedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
31-54	FX	"qoniqarsiz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlash-	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past</p>	2	Qoni qarsiz

		tirishi zarur	darajasiga ega bo'lsa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlash-tirishi lozim	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		

YAKUNIY NAZORAT (YAN)

Yakuniy nazorat kafedrada va simulytsion markazida OSCE shakida utkaziladi. Talaba TMI bo'yicha bajargan ishini YAN kuni ximoya qiladi. YAkuniy nazorat quyidagi usullar bilan o'tkazilsin.

- **Og'zaki so'rov** (OSKE usulda kafedrada) - 80 %.
- **Test usulida** (test topshirish) - 20%.

Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi.

Og'zaki so'rov o'tkazish quyidagi tartibda olib borilsin.

Tibbiyot kasbiga kirish modulda talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baxolash maqsadida ijodiy fikrlay olishi, mustaqil mushoxada yurita olish xamda olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi bo'yicha topshirik beriladi (takdimot, kasallik tarixi, simulyasiya vazifasi, videotaqdimot, referat va x.k.). Talaba berilgan topshiriqni YAN dan oldin platformaga joylaydi hamda o'qituvchi tomonidan platformada takriz yozib qo'yiladi. Kafedrada YAN o'tkazish vaqtida talaba komissiya oldida ximoya qilishi yo'lga qo'yiladi.

Talaba xar bir nazorat tur (JN va YAN) larining nechta usulda o'tkazilishidan

kat'iy nazar (og'zaki, test, topshiriq va boshqa) **ularni yig'indisi o'tish bali (55%) ni tashkil etsa shu nazorat turini topshirgan deb xisoblanadi.**

Talabaning xar bir nazorat turidan olgan baxolarining yig'indisi nazorat turining soniga bo'lish orqali shu fanning o'zlashtirish ko'rsatkichi butun sonlarda aniqlanadi. Masalan: $JN+YAN/2$ ($70+70=140/2=70$ bal)

JN va YAN larni baxolash tartibi: O'qituvchi kunlik darsni og'zaki-so'rov usulida o'tkazib, talabaning kunlik olgan balini jurnalga va platformaga kiritib boriladi. Talaba platformada kunlik dars uchun qo'yilgan testni shu kunni o'zida ishlashi yo'lga qo'yiladi.

Platformada o'qituvchi tomonidan qo'yilgan balni (yoki baxo)-0.8 koefitsient, kunlik test natijalarini o'rtachasini 0.2 koefitsient orqali aniqlash, natijani qo'shib JN bo'yicha talabaning olgan balini chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Tibbiyot kasbiga kirish moduli bo'yicha talabaning YAN dan olgan ballari ham shu usulda aniqlanishi yo'lga qo'yiladi.

Lomonosov nomidagi davlat universitetining (Moskva, Rossia, #87) fundamental tibbiyot fakulteti jarrohlik kafedrası Umumiy xirurgiya fanidan o'quv dasturidan quyidagi amaliy mashg'ulot mavzulari qo'shimcha sifatida kiritildi:

- Xirurgiyada kichik invaziv aralashuvlar
- Kam invaziv kardioxirurgiya
- Endovideojarrohlik operatsiyalari: NOTES, SILS
- Zamonaviy jaroxat qoplamlari

Yonsei University nomidagi universitetining (Seoul, South Korea, #56) tibbiyot fakulteti jarrohlik kafedrası Umumiy xirurgiya fanidan o'quv dasturidan quyidagi mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar mavzulari qo'shimcha sifatida kiritildi:

- Xirurgiyada kichik invaziv aralashuvlar
- Xirurgiyada to'qimalarni regeneratsiya qilish texnologiyalari
- Plastik, estetik va rekonstruktiv xirurgiya asoslari

6 VIII. Asosiy va kushimcha o'quv adabiyotlar xamda axborot manbalari

1. Asosiy adabiyotlar

1. Xalmatova B.T., Oxunov A.O., Karimov M.Sh. va boshq. Tibbiyot kasbiga kirish, Darslik. Toshkent. 2019 y.

2. Xalmatova B.T., Oxunov A.O., Karimov M.Sh. va dr. Введение в клинику, Учебник. Ташкент. 2019 г.

3. Oxunov A.O. Хирургик клиникасига кириш, Электрон дарслик. ТТА. 2018

й.

4. Охунов А.О. Основы общего ухода за хирургическими больными. Электрон дарслик - Ташкент. 2014 г.

5. Зокирходжаев Ш.Я., Солихов М.У. Шифокор ва бемор. Ўқув қўлланма -Тошкент. 2016 й.

2. Қўшимча адабиётлар:

1. Бабаджанов Б.Д., Охунов А.О. Понятие о хирургии. Организация работы хирургического отделения, Методическая рекомендация сценариев проведения практических занятий с использованием интерактивных методов обучения. Ташкент. 2012 г.

2. Бабаджанов Б.Д., Охунов А.О. Асептика. Сценарии для проведения практических занятий с использованием современных педагогических технологий составленные на основе единой методической систем, Методическая рекомендация. Ташкент. 2018 г.

3. Бабаджанов Б.Д., Охунов А.О. Антисептика. Сценарии для проведения практических занятий с использованием современных педагогических технологий составленные на основе единой методической систем, Методическая рекомендация. Ташкент. 2018 г.

4. Бабаджанов Б.Д., Охунов А.О. Обследование хирургического больного Курация больных. Схема академической истории болезни. Сценарии для проведения практических занятий с использованием современных педагогических технологий составленные на основе единой методической систем, Методическая рекомендация. Ташкент. 2018 г.

5. Болаларга стационар ёрдам курсатиш. Методик қўлланма. (ЎзССВ №225 буйруги, 2013 й.)

6. Даминов Т.О., Халматова Б.Т., Бобоева У.Р. Болалар касалликлари, Дарслик. Тошкент.2013 й.

7. Даминов Т.О., Халматова Б.Т., Бобоева У.Р. Детские болезни, Учебник. Ташкент. 2013 г.

8. Қодиров И. Хамширалик иши асослари, Дарслик. Тошкент. 2015 й.

9. Каримжонов И.А. Педиатрия ва неонатологияда хамширалик иши, Дарслик. Тошкент. 2012 й.

10. Краснов А.Ф. Сестринское дело. 1-2 том. Учебное пособие. Москва. 2000 г. 11. Кўкрак сути билан боқиш. Ўқув қўлланма. ЎзРССВ/ЮНИСЕФ, 2013.

12. Морозова Г.И. Основы сестринского дела. Ситуационные задачи. Практикум для медицинских училищ и колледжей. Москва. 2009 г.

13. Мухина С.А., Тарновская И.И. Основы сестринского дела, Практическое руководство к предмету. Москва. 2003 г.
14. Охунов А.О., Қаюмов Т.Х. Что такое хирургия?. Электронное учебное пособие (на узбекском, русском и английском языках). Ташкент. 2014 г.
15. Охунов А.О., Қаюмов Т.Х. История развития современной хирургии. Электронное учебное пособие (на узбекском, русском и английском языках). Ташкент. 2014 г.
16. Охунов А.О., Қаюмов Т.Х. Пионеры хирургии. Электронное учебное пособие (на узбекском, русском и английском языках). Ташкент. 2014 г.
17. Охунов А.О., Қаюмов Т.Х., Мехманов Ш.Р. и др. Сборник тестов уровня для студентов по дисциплине «Общая хирургия» (на узбекском и русском языках). Ташкент. 2014 г.
18. Охунов А.О. История развития современной хирургии. Электронный учебник. Ташкент. 2018 г.
19. Охунов А.О. Сценарии и сборник заданий для практических занятий по общей хирургии с использованием современных педагогических технологий. Учебно-педагогическое пособие для преподавателей по дисциплине «Общая хирургия». Ташкент. 2018 г.
20. Xalmatova B.T., Fayzieva O'R., Satiboldieva N.R. Neonatologiyada hamshiralik ishi. Darslik. Ташкент. 2014 у.
21. Okhunov A.O. What is surgery? For students of medical educational institutions. Электронное учебное пособие. Ташкент. 2018 г.

3. Qo'shimcha xorijiy adabiyotlar:

1. Charles F. Brunicaudi. Schwartz's principles of surgery.10th edition. 2015
2. Das S. A manual clinical surgery. Special investigations and differential diagnosis.11th edition. 2014.
3. John Lumley et all. Demonstrations of physical signs in clinical surgery. 19th edition. 2013.
4. Norman Williams. Bailey Loves. Short practice of surgery.26th edition. 2018.
5. Peter F. Lawrence. Essentials of general surgery.15th edition. 2013.
6. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining xirurgiya fanidan ishchi o'quv dasturi
<https://www.fbm.msu.ru/education/traineeship/pdf/surg-o-prog.pdf>

4.Internet saytlari:

1. www.tma.uz
2. www.ziyonet.uz

	<p>3. www.medlincs.ru</p> <p>4. www.medbook.ru.</p> <p>5. German medical website “Lecturio GmbH”</p> <p>6. Al-Farabi Kazakh National University: https://univision.kz/edu-program/19984.html#disciplines</p> <p>7. Moscow State University named after M.V. Lomonosov: www.fbm.msu.ru/education/traineeship/pdf/surg-o-prog.pdf</p> <p>8. Cambridge University Digital Library: https://libguides.cam.ac.uk/az/databases</p> <p>9. Yonsei University, Seoul, Korea: https://www.yonsei.ac.kr/en_se/1849/subview.do</p> <p>10. <u>Germaniyaning “Lecturio GmbH” meditsina sayti</u></p> <p style="text-align: center;">5.Kafedra professor-ukituvchilari tomonidan yaratilgan o‘quv adabiyotlar</p> <p>1. X.T.Musashayxov,O.T.Dadaboev,B.X.Matkarimov,“Кровотечения” O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2018 y.</p> <p>2. X.T.Musashayxov,E.A.Vasilevskiy,B.X.Matkarimov,“Основы трансфузиологии” O‘quv qo‘llanma. Toshkent.2018 y.</p> <p>3. X.T.Musashayxov,E.A.Vasilevskiy,O.T.Dadaboev,B.X.Matkarimov,F.D.Ikramova. “Актуальные вопросы практической хирургии” часть 1 (229 str.) i часть 2(241 str.). O‘quv qo‘llanma. Toshkent.2020 y.</p> <p>4. S.Z.Salaxidinov, F.D.Ikramova, X.K.Usmonov “Jarroxatlar”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.2020 y</p>
7	Andijon davlat tibbiyot institute tomonidan ishlab chiqilgan va OTM Kengashining 2025 yil «26» avgustdagi 1- sonli bayonhmasi bilan tasdiqlangan.
8	<p>Fan/modul uchun mas`ullar:</p> <p>S.M.Axmadaliev - Umumiy jarroxlik va transplantologiya kafedراسи katta uqituvchi</p> <p>O.T.Dadaboev - Umumiy jarroxlik va transplantologiya kafedراسи katta uqituvchi</p>
9	<p>Taqrizchi:</p> <p>B.Z.Xamdamov - Buxoro davlat tibbiyot instituti, Umumiy jarroxlik kafedراسи mudiri, t.f.d. dotsent</p> <p>U.D.Usmanov - ADTI Jarroxlik va urologiya kafedراسи dotsenti</p>